


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

***61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari***

Toshkent - 2023



**ISHLAB CHIQILGAN:**

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7»  
08 dagi 344- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>61010100 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....</i>	4
1.1.	<i>Qo'llanish sohasi.....</i>	4
1.1.1.	<i>61010100 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....</i>	4
1.2.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>61010100– Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	<i>Umumi kompetensiyalar.....</i>	7
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar.....</i>	7
2.3.	<i>Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablár.....</i>	8
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya.....</i>	8
2.3.2.	<i>61010100 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....</i>	9
2.3.3.	<i>61010100 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....</i>	9
	<i>Bibliografik ma'lumotlar.....</i>	10
	<i>Kelishuv varag'i.....</i>	11

## **1. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishning o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish** ta’lim yo‘nalishi – fan va turizm sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, mehmonxona xo‘jaligi sub’ektlarini tizimli taxlil qilish va rivojlantirish, mehmonxona xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, qayta ishslash va amalga oshirish, mahsulot va xizmatlarni reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, mehmonxona xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tahlil qilish, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, matematik modellarni qo‘llash, mehmonxona xo‘jaligidagi korxonalarining raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, korxonalarini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilarini va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

### **1.2.2. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:**

–O‘zbekiston Respublikasining Madaniyat va turizm vazirligi hamda uning hududlardagi boshqarmalari;

–davlat va nodavlat turistik korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

–mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari;

–sog‘lomlashtiruvchi maskanlar va ular bilan bog‘liq joylashtirish vositalari;

–mehmonxona xo‘jaligiga oid barcha turdag'i korxonalar, turistlarni analogik joylashtirish vositalari;

–mahalliy va xorijiy sayyohlarga mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar;

–turizmning soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

–turizm sohasida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

– turizm tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari;

–mehmonxona xo‘jaligi bilan bilan bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari.

–xizmat ko‘rsatish korxonalarida;

–hokimliklar va shu kabi davlat idoralarining turistik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lim va boshqarmalari;

–davlat boshqaruvi organlari, o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarini.

*61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatlari boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.*

### **1.2.3. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv.
- xizmat ko‘rsatish:
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

### **1.2.4. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

*61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:*

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan biridan kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doriasida zaruriy bilimlaga ega bo'lishi hamda ularning zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- rejalashtirish ishlarini tashkil etish;

- mehmonxona xo'jaligi sub'ektni xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqish;

- mehmonxona xo'jaligi sub'ektlarini iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rghanish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;

- mehnatni muhofaza qilish me'yor va qoidalariga amal qilish.

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- mehmonxona xo'jaligida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- turistik korxonalarda ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihibarini ishlab chiqishda ishtiroy etish.

- turizm sohasi bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish;

- mehmonxona xo'jaligida yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

- mehmonxona xo'jaligida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- mehmonxona xo'jaligida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

### Axborot-tahliliy faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishslashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;
- mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichilari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- mehmonxona xo'jaligida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- mehmonxona xo'jaligiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- mehmonxona xo'jaligidagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuuzish va ulardan foydalanish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- sohaga oid yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish.

## **2. 61010100 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatini shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda turistik korxona (tashkilot)ni

rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyatiga ta'luqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- buxgalteriya siyosati va turistik tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida harajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi bizhes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'naliishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **2.3. Umumiyl va kasbiy komponentlarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiyl va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritilgan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bevosita umumiyl va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'naliishi doirasida ixtisoslashuvidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

**o'quv-tanishuv amaliyoti** – xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlari, korxonalari, firmalari va boshqa korxonalar bilan tanishtirish, umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashni shakllantirishga qaratiladi;

**malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyoti** – majburiy va tanlov fanlaridagi mutaxassislik va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarini bevosita mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish hamda boshqarishda tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

**bitiruv ishi oldi amaliyoti** – bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga mo'ljallangan.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya:** Iqtisodchi (mehmonxona xo'jaligi bo'yicha)

**2.3.2. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4680	156
Tanlov fanlari	1740	58
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

**2.3.3. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4680</b>	<b>156</b>	
1.01	AM11212	Amaliy matematika (1,2)	360	12	1,2
1.02	XT11210	Xorijiy til (ingliz, nemis, fransuz) (1,2)	360	10	1,2
1.03	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.04	O‘RT1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.05	IN1106	Iqtisodiyot nazariyasi	180	6	1
1.06	FF1104	Falsafa	120	4	1
1.07	O‘EYT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	SG1204	Sanitariya va gigiena	120	4	2
1.09	IAKT1206	Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	180	6	2
1.10	TNA1206	Turizm: nazariya va amaliyot	180	6	2
1.11	MIK1306	Mikroiqtisodiyot	180	6	3
1.12	MBA1306	Mehmondo’stlik industriyasi	180	6	3
1.13	MN1306	Menejment	180	6	3
1.14	MAK1406	Makroiqtisodiyot	180	6	4
1.15	MOTE1406	Mehmonxonalarda ovqatlanishni tashkil etish	180	6	4
1.16	XMB15612	Xalqaro mehmonxona biznesi	360	12	5,6
1.17	MXI1506	Mexmonxona xo‘jaligi iqtisodiyoti	180	6	5
1.18	MR1506	Marketing	180	6	5
1.19	MXBB1506	Mehmonxonalarda xonalar bo‘limini boshqarish	180	6	5
1.20	MFSX1606	Mehmonxona faoliyatida sifat va xavfsizlik	180	6	6
1.21	MSM1606	Mehmonxona xo‘jaligida strategik menejment	180	6	6
1.22	BHA1706	Buxgalteriya hisobi va audit	180	6	7
1.23	IRB1706	Inson resurslarini boshqarish	180	6	7
1.24	MD1706	Mehmonxona dizayni	180	6	7
1.25	MTTE1806	Mehmonxonalarda tadbirlarni tashkil etish	180	6	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1740</b>	<b>58</b>	<b>3,4,5,6,7,8</b>
<b>2.00</b>		<i>Tanlov fanlar (10 ta fan)</i>	<i>1740</i>	<i>58</i>	<i>3,4,5,6,7,8</i>
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
		<b>Malaka amaliyoti</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>4,6,8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lif, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliv ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, turizm, mehmonxona xo'jaligi, biznes strategiyasi, mehmonxona xizmatlari, mehmonxona turlari, turizmda innovatsiyalar, xalqaro mehmonxonalar tarmog'i, mehmonxona biznesi, sifat va xavfsizlik.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Rektor  **M.Po'latov**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



**M.O.**



**M.O.**


**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy ta'lifini rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh.Yakubov**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Rektor  **K.Sharipov**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



**M.O.**




**M.O.**

**Samarqand viloyati  
Madaniyat va turizm boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i  **Sh.Eshonqulov**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**"Billuri Sitora" mehmonxonasi**


Direktor  **B.Ergasheva**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



**M.O.**

**"Dinara tour service" turistik firmasi**

Direktor  **F.Muhammadjonov**

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



**M.O.**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**  
**61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim**  
**yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar,**  
**turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasidagi**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Samarqand sh.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.Sharipov, Samarqand viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i Sh.Eshonqulov, “Billuri Sitora” mehmonxonasi direktori B.Ergasheva, “Dinara tour service” turistik firmasi direktori F.Muhammadjonov hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori M.E.Po‘latov birgalikda SamISIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasining mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*1. 61010100 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi.*

Malaka talablari hamda o‘quv rejaning ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2023-yil 28-fevraldagagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” to‘g‘risidagi PF-27-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-200-son Qarori, 2023-yil 5-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-son buyrug‘i hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib shuningdek, xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent davlat  
universiteti rektori



K.Sharipov

Samarqand viloyati Madaniyat va  
turizm boshqarmasi boshlig'i



Sh.Eshonqulov

"Billuri Sitora" mehmonxonasi  
direktori



B.Ergasheva

"Dinara tour service" turistik  
firmasi direktori



F.Muhammadjonov

Samarqand iqtisodiyot va servis  
instituti rektori



M.E.Po'latov